O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YAXSHILIKOVA ZARIFA ABDIMANNONOVNA

SITIZIN VA MORFOLINNI ALKILLASH VA ALKIL MAHSULOTLARI ASOSIDA SINTEZLAR

02.00.03 – Organik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T: 547.304.2+547.302+547.94

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YAXSHILIKOVA ZARIFA ABDIMANNONOVNA

SITIZIN VA MORFOLINNI ALKILLASH VA ALKIL MAHSULOTLARI ASOSIDA SINTEZLAR

02.00.03 – Organik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/K761 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-kimyo.nuu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xoliqov Tursunali Suyunovich** kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxsumov Abdulhamid G‘afurovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Matchanov Alimjon Davletbayevich kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; faks: (+99871) 246-53-21; e-mail: www.ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100174, Toshkent shahri, Universitet ko’chasi 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; (+99871)227-12-24, faks: (+99871)246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,
k.f.d., professor

U.O‘.Ro‘zmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
k.f.d., professor

A.K.Abdushukurov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda dunyoda morfolin va sitizin hosilalari tibbiyotda hamda farmatsevtikada turli kasalliklarga qarshi dori vositalari, agrosanoatda gerbitsid va fungitsid sifatida keng miqyosda qo‘llaniladi. Morfolin hosilalari antibiotik *linezolid*, antidepressant *reboxetine*, teri va tirnoq zamburug‘ kasalliklarida *amorolfine*, saratonga qarshi *gefitinib* preparatlar ko‘rinishida ishlatiladi. Sitizin asosida olingan *tabeks* preparati chekishga qarshi vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu preparatlarning analoglarini yaratish, ularni olish usullarini takomillashtirish va amaliyotga qo‘llash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda morfolin va sitizinning N-alkil birikmalarini sintez qilishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda ushbu reaksiyalar uchun yangi katalizatorlarni tavsiya etish yo‘nalishida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, morfolinning alkil, allil, propargil galogenidlar va sitizinning dibromalkanlar bilan alkillash reaksiyalari asosida olingan N-alkil, N-allil,
N-propargilmorfolinlarni benzil xlorid ishtirokida alkillash natijasida to‘rtlamchi ammoniy birikmalarini sintez qilish reaksiyalari muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot mavjud bilimlarni oshirishga qaratilgan va tadqiqotni sanoatlashtirish, sanoatni rivojlantirishning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, mahalliy xomashyo asosida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish borasida tabiiy va sintetik organik moddalar olish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish”ga yo‘naltirilgan vazifalari belgilab berilgan[1]. Shu yo‘nalishda, bugungi kunda tarkibida azot atomi tutgan geterohalqali birikmalarni alkillash reaksiyalari asosida to‘rtlamchi ammoniy birikmalari sintezining optimal sharoitlarini topish va olingan birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan tahlil qilish, reaksiyaning yuqori unumlar bilan borishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarni aniqlash hamda tarkibida turli funksional guruh tutgan biologik faol moddalarni yaratish uchun zarur bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yana-da isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori hamda 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy
hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida geterohalqali birikmalarni alkillash reaksiyalari organik kimyo yo‘nalishida keng o‘rganilgan, xususan, xorijda maqsadli sintezlarni amalga oshirish bo‘yicha jahonning yetakchi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. A.Coe, J.L.Stolerman, R.A.Clarke sitizinning nikotin retseptorlariga ta’siri va strukturaviy analoglarini o‘rganish bo‘yicha fundamental ishlar olib borgan. I.D.M.Toth, J.R.Livingstone sitizin va uning N-alkillangan hosilalarining tuzilish-faollik bog‘liqligini o‘rganishgan. H.R.Snyder, R.Adams azot saqlovchi geterotsikllar, jumladan morfolinning alkillanish reaksiyalarini klassik organik kimyo nuqtayi nazaridan o‘rganishgan. Yevropa farmatsevtik kimyo maktablari morfolin asosidagi N-alkillangan hosilalar va to‘rtlamchi ammoniy tuzlarini sintez qilish hamda ularning biologik faolligini baholash bilan shug‘ullangan

Respublikamizda morfolin va sitizin birikmalari asosida to‘rtlamchi ammoniy birikmalar sintezi hamda alkil, allil, propargilgalogenidlar bilan alkillsh reaksiyalari ustida bir qancha etakchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar, masalan S.Yu.Yunusov va hamkasblari, Sh.B.Raximov, V.I.Vinogradova, A.G‘.Maxsumov, H.S.Tojimuhamedov, O.Sh.Xoliqova, O.S.Maksumova va boshqalar o‘simliklardan sitizin ajratib ajratib olib, uning birikmalari hamda morfolin hosilalari sintezi va kimyoviy xossalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, morfolin va sitizin birikmalarining
N-alkil mahsulotlar sintezi bo‘yicha keng qamrovli tajriba natijalari bo‘lishiga qaramasdan, ularning N-allil (propargil)-N-benzil, N-alkil-N-benzil, ba’zi bir
N-alkil sitizinlar o‘rganilmagan. Shu sababli, alkil galogenidlar va digalogenalkanlar bilan reaksiyalarini o‘rganish va sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish kasb etadi. Shu sababli mazkur dissertatsiya ishi morfolinni alkillash natijasida olingan N-alkilmormolinlarni benzil xlorid bilan nukleofil almashinish reaksiyalarini tadqiq qilish hamda sitizinni dibromalkanlar ishtirokida biologik faol hosilalarini maqsadli sintezini amalga oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy

universitetining AM-FZ-2019081452 “Etilen asosida siklogeksan sintezi texnologiyasini ishlab chiqish” (2020-2022-yy.) mavzularidagi fundamental ilmiy tadqiqodlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sitizin va morfolinni alkillash va alkil mahsulotlari asosida sintezlarni amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Morfolinni turli alkillovchi reagentlar (monoalkilgalogenidlar) bilan o‘zaro ta’sirlanish reaksiyalarini hamda alkillash reaksiyalarining alkillovchi agent tabiatiga bog‘liqligini aniqlash;

Sintez qilingan N-pentil-, N-nonil-, N-allil- va N-propargilmorfolinlarning benzil xlorid bilan nukleofil almashinish reaksiyalarini olib borish;

Sitizinning turli dibromalkanlar bilan reaksiyalarida kechadigan N-alkillanish va ichki halqalanish jarayonlarini asoslash;

Sintez qilingan yangi birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar (IQ, ^{1}H va ^{13}C YaMR, hamda rentgen-tuzilish tahlil) yordamida tasdiqlash;

Olingan sitizin hosilalari va morfolin asosida olingan to‘rtlamchi ammoniy tuzlarining biologik faolligini (in vitro sharoitida gram-musbat/manfiy bakteriyalar va zamburug‘larga nisbatan) aniqlash.

Tadqiqotning obyektlari sifatida sitizin va morfolin**,** alkillovchi reagentlar, alkil hosilalari, to‘rtlamchi ammoniy tuzlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sitizin va morfolinning alkillanish reaksiyalari, ushbu kimyoviy jarayonlarning borish mexanizmlari (S_N2 va ichki halqalanish), reaksiya sharoitlariga bog‘liq holda hosil bo‘ladigan alkil hosilalar va to‘rtlamchi ammoniy tuzlarining fazoviy tuzilishi, hosil bo‘lish qonuniyatlari hamda ularning
fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari sifatida yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX), IQ, 1H va 13C YaMR-spektroskopiya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), biologik faolliklarni aniqlash usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Morfolinning monogalogenalkanlar ishtirokidagi reaksiyalarida N-butilmorfolin< N-pentilmorfolin < N-geksilmorfolin< N-nonilmorfolin qatorida CH_2-metilen guruhlar soni uzayishi bilan mahsulot unumi ortishiga asoslangan. Reaksiyalarining S_N2 mexanizmda etanol erituvchisida (78 ^{o}C) unum yuqori bo‘lishi erituvchi tabiati va reaksion haroratning mahsulot unumiga ta’siri bilan izohlangan;

Ilk bor N-alkil, (N-allil, N-propargil)morfolinlarning asetonitril erituvchisida, 4-Benzil-4-Pentil-, 4-Benzil-4-Nonil, 4-Benzil-4-Allil- hamda 4-Benzil-4-Propargilmorfoliniy xlorid kabi to‘rtlamchi ammoniy tuzlari sintez qilingan. N-allil, N-propargilmorfolinlar bilan benzilxlorid nisbati 1:1,2 bo‘lganda reaksiya unumi yuqoriligi (96 %) isbotlangan;

Sitizinni alkillash jarayonida ichki halqalangan birikma, N-(1,4-butilen) to‘rtlamchi sitizin bromidi bir bosqichda sintez qilinib, 95 % unum bilan barqaror halqali tuzilishdagi ortorombik kristall $\alpha = \beta = \gamma = 90°$ li

birikma hosil bo‘lishi tadqiq qilingan;

N-geksilmorfolin asosida temir (III) xlorid katalizatori ishtirokida 4-Geksil-4-Nonilmorfoliniy bromid sintez qilinib, Lyus kislotasining ushbu reaksiyada katalizatorlik xususiyatini namoyon etishi mumkinligi ko‘rsatilgan;

N-alkil, N-allil, N-propargilmorfolinlar IQ spektrlarida morfolinga xos N–H 3300-3400 cm^{-1} sohada tebranishlari yo‘qligi hamda 2850-2960 cm^{-1} sohada alifatik C–H yutilish chiziqlarining kuzatilishi ularning uchlamchi aminlar ekanligini tasdiqlagan. ^{1}H YaMR spektrlarida 2,20-2,35 m.u. sohalarda azot atomi bilan bog‘langan metilen guruh (H-7) signallari aniqlandi. 4-Benzil-4-nonilmorfoliniy xloridning kristall tuzilishi rentgenostruktur tahlil yordamida aniqlanib, uning monoklinik kristall sistemasida (a = 8,7990(5) Å, b = 7,4720(4) Å, c = 32,998(2) Å, β = 95,561(3)°) kristallanishi tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Morfolin asosida olingan uchlamchi aminlarning benzil xlorid bilan reaksiyalarini turli erituvchilarda olib borish va tegishli to‘rtlamchi ammoniy tuzlarini yuqori unumlarda olish mumkinligi ko‘rsatilgan. Sintez qilingan to‘rtlamchi ammoniy tuzlaridan 4-benzil-4-pentilmorfolin-4-iy va 4-benzil-4-nonilmorfolin-4-iylarning hamda sitizinning 1,4-dibrombutan bilan hosil qilgan birikmasining fazoviy tuzilishi hamda barcha kristallografik kattaliklari isbotlangan va xalqaro Kembridj kristallografik ma’lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Centre)ga shunga o‘xshash birikmani sintez qilishda foydalanish uchun joylashtirilgan;

Sintez qilingan moddalardan 4-Benzil-4-Nonilmorfoliniy xlorid, va N-(5-brompentil) sitizinning *Bacillus subtilis, Staphylococcus aureus* grammusbat, *Escherichia coli, Pseudomonas aeruginosa* grammanfiy bakteriyalarga qarshi bakterisidlik, shuningdek 4-Benzil-4-Allilmorfoliniy xlorid *Candida albicans* patogen zamburug‘larga qarshi fungisidlik faolliklarini namoyon qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari spektral usullar (YMR, IQ,), rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografik (YQX) va biologik usullar ma’lumotlari asosida tasdiqlangan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sitizin alkaloidi va morfolinni alkillash,

N-alkilmahsulot asosida ilk bora to‘rtlamchi ammoniy tuzlarini hamda sitizin asosida bir bosqichda ichki halqalangan mahsulot sintez qilinganligi, shuningdek, tarkibi, tuzilishi, xossalari va barqarorligini aniqlash natijalari hamda xulosalarni zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari natijalariga tayangan holda amalga oshirilganligi geterotsiklik birikmalar kimyosini nazariy jihatdan yangi materiallarga boyitganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sintez

qilingan to‘rtlamchi ammoniy tuzlaridan 4-benzil-4-pentilmorfolin-4-iy va 4-benzil-4-nonilmorfolin-4-iylarning hamda sitizinning 1,4-dibrombutan bilan hosil qilgan birikmasining mono kristallari o‘stirilib, fazoviy tuzilishi hamda barcha kristallografik kattaliklari isbotlangan va xalqaro Kembridj kristallografik ma’lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Centre)ga kiritildi. 4-Benzil-4-Nonilmorfoliniy xlorid, 4-Benzil-4-Allilmorfoliniy xlorid va N-(5-brompentil)sitizinning ma’lum konsentratsiyalarda bakteriya hamda zamburug‘larga nisbatan sezilarli antibakterial va antifungal faollik namoyon qiluvchi alkil hosilalar aniqlangan. Sitizin va morfolin asosida biologik faol moddalar olindi hamda turli alkillovchi reagentlar ta’sirida qator yangi birikmalarni samarali olish imkoniyati yaratilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. N-pentil morfolin, N-nonil morfolin va sitizin asosida olingan yangi to‘rtlamchi ammoniy tuzlari sintezi, kimyoviy modifikatsiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida: uchta birikmaning kristall tuzilishlari aniqlangan va xalqaro Markaziy Kembridj kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lib (The Cambridge Structural Database, https://www.ccdc.cam.ac.uk) CCDC: 2277070, 2541862, 2541863 ularga tegishli identifikatsiya raqamlari olingan. Natijada o‘xshash birikmalarni sintez qilish va fazoviy tuzilishlarini taqqoslab o‘rganish imkonini bergan.

Olingan natijalar O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FL–7923051904 “Vinil birikmalar olish uchun nano o‘lchamli katalizatorlar va ularning tashuvchilari sintezi, tuzilishi va elektron xossalari” (2024-2025-yy.) mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi 2026-yil 22-aprel 01-02/1/1677-son ma’lumotnomasi). Natijada yangi birikmalarni sintez qilish, ularning kristall tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar boyitildi, olingan ilmiy natijalar esa istiqbolli funksional materiallarni yaratish va ularning xossalarini baholashga oid tadqiqotlarda qo‘llashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 xorijiy (scopus), 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi[2].

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati haqida ma’lumot berilgan, maqsad va vazifalari keltirib o‘tilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan, shuningdek, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Morfolin va sitizin asosida to’rtlamchi ammoniy tuzlari sintezi”** deb nomlangan **birinchi bobida** adabiyotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, morfolin asosida sintezlar, sitizin asosida sintezlar va to‘rtlamchi ammoniy tuzlarining olinishi hamda ularning xossalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Ularning sintezi, modifikatsiyasi, biologik faolligiga doir adabiyotlarning hozirgi holati tahlil qilingan. Dissertatsiyaning “**N-alkilmorfolinlar sintezi va ular asosida**

---

[2]*Muallif O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti yetakchi ilmiy xodimi Sh.N. Jo‘raqulovga dissertatsiya ishini bajarishda ko‘rsatgan yordami uchun o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.*

to‘rtlamchi ammoniy tuzlarini olish hamda Sitizinni dibromalkanlar bilan turli hosilalari sintezi” deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari keltirilgan.

Morfolinning butil, pentil, geksil va nonil bromidlar bilan olib borilgan reaksiyalari, jarayonning optimal sharoitlarini (erituvchi turi, harorat, reagentlar nisbatlari va reaksiya davomiyligi) tanlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari batafsil bayon etilgan. Shu bilan birga, alkil zanjir uzunligining reaksion qobiliyatga, hosil bo‘ladigan mahsulotlarning unumi qiyosiy tahlil qilinib, eng samarali sharoitlar aniqlangan. Morfolin bilan alkilgalogenidlarning reaksiyasini amalga oshirish uchun reaksiya mahsulotining unumiga erituvchilar, vaqt va modda tabiati kabi omillar ta’siri o‘rganildi. Erituvchilar sifatida etanol va atsetondan foydalanildi. Natijalarni quyida ko‘rishimiz mumkin.



1-sxema. Morfolinning to‘yingan va to‘yinmagan alkilbromidlar bilan reaksiyalari.

1-jadval

Morfolinni alkil galogenidlar bilan reaksiyalari unumiga vaqt va erituvchining ta’siri. (Morfolin : alkilgalogenid: K_2CO_3, 1:1:1)

№	Reagentlar	Mahsulot unumi % va reaksiya davomiyligi (soat)

	1:1:1	1 soat		3 soat		4 soat		5 soat		7 soat	
		aseton	etanol	aseton	etanol	aseton	etanol	aseton	etanol	aseton	etanol
2	Morfolin:Butilbromid: K_2CO_3	50	52	50	55	60	68	60	68	-	-
3	Morfolin: Pentilbromid:K_2CO_3	66	75	70	81	70	81	-	-	-	-
4	Morfolin: Geksilbromid: K_2CO_3	43	52	59	68	74	82	74	82	-	-
5	Morfolin: Nonilbromid:K_2CO_3	42	51	53	62	65	70	67	74	78	86

Uglerod zanjirining uzayishi mahsulot unumiga bir nechta termodinamik va kinetik omillar orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, alkil zanjiri uzunligi ortgan sari (butilbromiddan nonilbromidgacha) alkilgalogenidning qaynash harorati sezilarli darajada oshib boradi va uning uchuvchanligi kamayadi. Reaksiya 5-7 soat davomida teskari sovutgich ostida qaynatilganligi sababli, nisbatan qisqa zanjirli reagentlarning (masalan, butilbromid) ma’lum qismi bug‘lanish hisobiga reaksiya muhitidan uzoqlashishi mumkin. Nonilbromid kabi og‘irroq reagentlarda bu yo‘qotish deyarli kuzatilmaydi va effektiv konsentratsiya yuqori darajada saqlanib qoladi.

Ikkinchidan, uzun zanjirli (tarmoqlanmagan) birlamchi alkilgalogenidlarda nonilbromidning lipofilligi yuqori bo‘lishi uning organik fazadagi oraliq komplekslar barqarorligiga hissa qo‘shishi va reaksiyaning yakuniy unumdorligini 86 %gacha oshirishi ilmiy tasdig‘ini topdi.

Nazariy jihatdan, bunday reaksiyalar uchun aproton qutbli erituvchilar (masalan, aseton) eng maqbul hisoblanadi, chunki ular nukleofilni solvatlamaydi va uning reaksiyaga kirishish qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, klassik qarashlarga ko‘ra, atseton muhitida reaksiya tezligi va mahsulot unumi yuqori bo‘lishi kutiladi.

Biroq mazkur tadqiqotdagi amaliy natijalarning etanol erituvchisida unum yuqori bo‘lishi termodinamik harorat omili va erituvchilarning fizik xossalari bilan tushuntiriladi. Atsetonning qaynash harorati nisbatan past (56^oC), etanolniki esa yuqori (78^oC). Reaksiyalar teskari sovutgichda qaynash haroratigacha qizdirilib olib borilgan. Etanoldagi muhitda reaksiya 78^oC da boradi, bu esa reaksiyaga kirishuvchi moddalarga ko‘proq issiqlik (kinetik) energiyasi berib, S_N2 jarayonining aktivlanish energiyasi (Ea) to‘sig‘idan oshib o‘tish ehtimolini keskin oshiradi. Natijada, haroratning yuqoriligi aproton muhit beradigan afzallikni bosib ketadi va ma’lum vaqt oraliqlarida (5 soat) etanol muhitida mahsulot unumi sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu bois, etanol erituvchisida mahsulot unumining asetonga nisbatan yuqori bo‘lishi fizik-kimyoviy omillar yig‘indisi bilan izohlanadi va tajribaviy natijalar bilan mos keladi.

2-jadval

Morfolin bilan alkilgalogenidlarning reaksiyasidan olingan mahsulotlarning unumi va fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Olingan mahsulot	Reagentlar mol nisbati	Vaqt, soat	Rf qiymati	Mahsulot unumi, %	$T_{qaynash}$, C^o	Agregat holati,rangi
2	N-butilmorfolin	1:1	4	0,71	68	178–182	Suyuq, och sariq
3	N-pentilmorfolin	1:1	3	0,77	81	195–200	Suyuq, och sariq
4	N-geksilmorfolin	1:1	5	0,69	82	215–220	Suyuq, och sariq
5	N-nonilmorfolin	1:1	7	0,66	86	270–280	Yog‘simon suyuqlik, sarg‘ish

Ushbu ishda morfolinning alkilgalogenidlar bilan 1:1 mol nisbatda olib borilgan alkillash reaksiyalari asosida N-alkilmorfolinlar qatori sintez qilindi. Tadqiqotda N-butil-, N-pentil-, N-geksil- va N-nonilmorfolinlar olinib, ularning reaksiya kinetikasi, unum ko‘rsatkichlari hamda fizik-kimyoviy xossalari o‘rganildi.

Alkil zanjir uzaygani sari sterik to‘siq ortadi, shuningdek, reagentlarning fazoviy xossalari (viskozlik va diffuziya tezligi) pasayadi, bu esa reaksiya tezligini kamaytiradi. Ayniqsa, C_6 va C_9 atomli alkilgalogenidlar ishtirokidagi reaksiyalarda diffuzion cheklanishlar muhim rol o‘ynaydi.

YuQX tahlillari barcha sintez qilingan birikmalar uchun Rf qiymatining bir biriga yaqin ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat ishlatilgan eluent tizimi sharoitida
N-alkilmorfolinlarning qutblilik xossalari yaqin ekanligini va asosiy farq faqat alkil zanjir uzunligida ekanligini tasdiqlaydi. Morfolin halqasining doimiy qutbli fragment sifatida saqlanishi Rf qiymatlarining sezilarli o‘zgarmasligiga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar morfolinning alkilgalogenidlar bilan alkillash reaksiyasi 80°C sharoitda samarali kechishini, 1:1 mol nisbat optimal ekanligini hamda sintez qilingan N-alkilmorfolinlar yuqori unum bilan olinishi mumkinligini ko‘rsatdi. Kuzatilgan kinetik va termodinamik qonuniyatlar ushbu birikmalar sinfi organik sintez hamda sirt-faol moddalar kimyosi uchun istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.



N-nonilmorfolinning (5) ^1H va ^{13}C YaMR-spektrlari tahlili.

N-nonilmorfolinning (**5**) ^1H YaMR spektrida dastlabki morfolindan

farqli ravishda 0.84 m.u. sohasida metil guruh tutgan (CH_3) H-15 protonlariga xos triplet (J= 7.1) signal aniqlandi. 1.26 m.u. sohasida metilen guruh tutgan (CH_2)
H-9,10,11,12,13,14 protonlariga xos multiplet signallar aniqlandi. 1.48 m.u. sohasida metilen guruhiga H-8 protonlarga xos triplet (J=7.7) signallarni ko‘rishimiz mumkin. 2.32 m.u. sohasida morfolin halqasidagi azot atomi bilan bog‘langan metilen guruh (CH_2) H-7 protonlariga xos multiplet signallar aniqlandi. Qolgan signallar morfolin molekulasiga xos signallar ekanligi kuzatildi.

^{13}C YaMR spektrini 14.18 m.u. sohasida nonil molekulasidagi metil guruh (C-15), 22.74 m.u. sohada 14- uglerod atomi hamda 26.43 m.u. sohada 9- uglerod atomi va 27.56 m.u. sohada 8-uglerod atomi, 29.34 m.u. sohada 12-uglerod atomi, 29.60 m.u. sohada 10-11 uglerod atomiga xos hamda, 31.94 m.u. sohada 13-uglerod atomi, 59.27 m.u. sohada morfolin halqasidagi azot atomiga bog‘langan 7-uglerod atomi signallari kuzatildi. Qolgan uglerod atomlari morfolin halqasiga xos signallar berganligini ko‘rishimiz mumkin. N-nonilmorfolinning ^{1}H va ^{13}C YaMR spektrlari tahlili sintez qilingan birikmaning tuzilishini to‘liq tasdiqladi. Spektrda nonil radikaliga tegishli proton va uglerod atomlari signallarining kuzatilishi hamda ularning kimyoviy siljish qiymatlari adabiyotlarda keltirilgan alifatik zanjirli uchlamchi aminlar uchun xarakterli diapazonlarga mos kelishi aniqlandi. Xususan, terminal metil guruhi protonlarining triplet ko‘rinishida namoyon bo‘lishi va metilen protonlarining ketma-ket multiplet signallari nonil fragmentining morfolin azot atomiga birikkanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, morfolin halqasidagi azot atomi bilan bevosita bog‘langan metilen guruhi proton va uglerod atomlari signallarining past maydonga siljishi azot atomining elektron ta’siri bilan izohlanadi.



1-rasm. N- nonilmorfolinning **(5)** ^{1}H YaMR-spektri.

3-jadval

Morfolinni allil va propargil bromidlar bilan reaksiyalari unumiga vaqtning ta'siri. (Morfolin: alkilgalogenid: K_2CO_3, 1:1:1)

№	Reagentlar 1:1:1	Mahsulot unumi, (%) va reaksiya davomiyligi (soat)			
		1 soat	2 soat	3 soat	4 soat
6	Morfolin:Propargilbromid: K_2CO_3	63	91	92	92
7	Morfolin:Allilbromid:K_2CO_3	86	87	87	-

Morfolin atsetonda eritilib, so'ngra, allil va propargil bromidlar tomchilatib qo'shildi. Reaksion aralashmani magnitli aralashtirgichda 3-4 soat davomida xona haroratida aralashtirish yordamida mahsulot sintez qilindi. Morfolinning to'yinmagan allil va propargil bromidlar bilan reaksiyalari atseton kabi aproton erituvchisidan foydalanish orqali reaksiya unumi oshirildi.

4-jadval

Morfolinni allil va propargil bromidlar bilan reaksiyalari unumiga reagentlar nisbati ta'siri (Morfolin: alkilgalogenid: K_2CO_3, 1:1:1)

№	Reagentlar	Mahsulot unumi, (%) va reagentlar mol nisbati		
		1:1	1:1,1	1:1,2
1	Morfolin:Propargilbromid: K_2CO_3	91	92	92
2	Morfolin:Allilbromid:K_2CO_3	86	87	87

3- va 4-jadvalda Morfolinning to'yinmagan alkil bromidlar o'rtasidagi reaksiyalarga vaqt davomiyligi hamda dastlabki reagentlarning nisbati reaksiya unumiga ta'sirini o'rganish natijalari ko'rsatilgan. Reaksiya turli mol nisbatlarida 1:1, 1:1,1 va 1:1,2 hamda turli vaqt oralig'ida 1 soat, 2 soat va 3 soat (propargilbromid bilan 4 soat) davomida olib borildi. Reagentlar nisbati 1:1 bo'lganda, kam vaqt sarflanib eng yuqori unumga erishildi.



N-propargil morfolinning **(6)** ^{1}H YaMR spektrida dastlabki morfolindan farqli ravishda 3.60 m.u. sohasida molekula tarkibida uchbog' tutgan (C-H guruhi) H-9 protonlariga xos triplet signal (J= 2.6) aniqlandi. 3.70 va 4.02 m.u. sohada azot atomiga bog'langan (CH_2 guruh) H-3,5 protonlari uziga xos tarzda multiplet hamda dublet-dublet (J=5.9, 3.9) signallar, 4.65 m.u. sohada propargil molekulasidagi azot atomi bilan bog'langan (CH_2 guruhi)

H-7 protoni signalini ko‘rishimiz mumkin. 4.85 sohada kislorod atomiga bog‘langan (CH_2 guruhi) H-2,6 protonlar signali aniqlandi. Birikmaning ^{13}C YaMR spektrini 50.19 m.u. sohasida proporgil molekulasidagi azot atomi bilan bog‘langan uglerod (S-7), 69.69 m.u. sohada
9-uglerod atomi hamda 82.73 m.u. sohada 8-uglerod atomi signallari aniqlandi.



2-rasm. N-propargilmorfolinning **(6)** ^1H YaMR-spektri.

Morfolinning to‘yinmagan alkil galogenidlar bilan olib borilgan reaksiyalarida sintez mahsulotlarini tuzilishi IQ, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopik usulida isbotlandi.

N-Pentil, N-Nonil, N-Allil, N-Propargilmorfolinlarning benzil xlorid bilan reaksiyalari.

To‘rtlamchi ammoniy birikmalari sirt-faol, yuvuvchi va antimikrob xossalarga ega. Bu tuzlarining eng keng qo‘llanilish sohalaridan biri sanitariya va dezinfeksiya sohasi hisoblanadi. Morfolin asosida olingan to‘rtlamchi ammoniy tuzlari *Staphylococcus aureus* ATCC 25923 va *Escherichia coli* ATCC 25922 bakteriyalariga qarshi to‘liq dezinfeksiya ta’sirini namoyon etganligi aniqlangan. Bundan tashqari, tarkibida morfolin molekulasi mavjud bo‘lgan ko‘plab birikmalar biologik faol, dori vositalari hisoblanadi.



2-sxema. To‘rtlamchi ammoniy tuzlari sintezi.

Bu yerda N-pentilmorfolin (**3**), N-nonilmorfolin (**5**), N-propargilmorfolin (**6**), N-allilmorfolin (**7**), 4-Benzil-4-Pentilmorfoliniy xlorid (**9**), 4-Benzil-4-Nonilmorfoliniy xlorid (**10**), 4-Benzil-4-Propargilmorfoliniy xlorid (**11**), 4-Benzil-4-Allilmorfoliniy xlorid (**12**).

Yuqoridagi tajribalar asosida N-alkilmorfolinlar benzil xlorid bilan erituvchini qaynash haroratida qutbli apraton erituvchi atsetonitril ishtirokida ta'sirlanishidan to'rtlamchi ammoniy tuzlari yuqori unumlar bilan olindi. Olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Ilk bor olingan to'rtlamchi ammoniy tuzlarining unumi va fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Olingan mahsulotlar	Reagentlarning mol nisbati	Vaqt, soat	T_{suyuq}, °C	Rf qiymati	Mahsulot unumi, %	Agregat holati, rangi
1	4-Benzil-4-Pentilmorfoliniy xlorid	1:1,2	5,5	194-196	0,60	94	Oq, kristal
2	4-Benzil-4-Nonilmorfoliniy xlorid	1:1,2	7	196-198	0,68	89	Oq, kristal
3	4-Benzil-4-Propargilmorfoliniy xlorid	1:1,2	4,5	205-207	0,64	80	Qo'ng'ir, smolasimon
4	4-Benzil-4-Allilmorfoliniy xlorid	1:1,2	5	214-216	0,63	96	Och sariq moysimon

Morfolin asosida olinngan N-alkil morfolinlar o'z navbatida benzil xlorid bilan reaksiyalarida reagentlarning 1:1, 1:1,1, 1:1,2, 1:1,5 nisbatlarida tajribalar olib borildi, natijada 1:1,2 mol nisbatda yuqori unumga erishildi. Tajribalar turli xil vaqt davomiyligida, erituvchini qaynash haroratida olib borilganda 4-Benzil-4-Pentilmorfoliniy xlorid tuzida yuqori unum bilan mahsulot sintez qilindi. Morfolin hosilasidagi uchlamchi azot (R_3N) erkin elektron juftiga ega kuchli nukleofil bo'lib, azot benzilxloriddagi elektrofil markazga hujum qiladi.

C-Cl bog'i uziladi va C-N bog'i hosil bo'ladi. Natijada N-benzil-N-alkilmorfoliniy xlorid (to'rtlamchi ammoniy tuzlari) hosil bo'ladi. Reaksiya nukleofil almashinish (S_N2) mexanizmda boradi. Bu jarayonda reaksiya tezligiga va mahsulot unumiga alkil guruh tabiati ham bevosita ta'sir qiladi. N-pentil va N-nonil hosilalar uzun alkil zanjirga ega, buning natijasida fazoviy to'siq oshadi va reaksiya tezligi pasayadi, lekin lipofillik oshadi. N-allil hosilada π- tizim mavjud, elektrono donor effektga ega, natijada nukleofillik ortadi va reaksiya nisbatan tez boradi. N-propargil hosilada *sp*-gibridlangan uglerod mavjud, elektron tortuvchi effekt biroz kuchli bo'lib, oraliq kompleksning barqarorligi pasayishi mumkin. Bunda N-alkil hosilalarning reaksion qobiliyati quyidagi tartibda kamayib boradi:

N-allil morfolin > N-pentil morfolin ≈ N-nonil morfolin > N-propargil morfolin. Sintezda foydalanilgan atsetonitril (CH_3CN) erituvchisi qutubli

apraton erituvchi hisoblanadi. Nukleofilni solvatlamaydi, natijada S_N2 reaksiyani tezlashtiradi va to‘rtlamchi ammoniy tuzlari sintezi uchun maqbul muhit hisoblanadi. Substrat – benzilxlorid reaksion qobiliyati kuchliligi sababli reaksiyaning yuqori unum bilan borishini ta’minlaydi.

To‘rtlamchi ammoniy tuzlari antimikrob faollikga ega, fazalararo katalizatorlar sifatida ishlatiladi, bundan tashqari, dori vositalari sintezida muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tajribalar YuQX nazorat qilib turildi (Sistema: Xloroform:Metanol: 16:1, 12:1, 4:1, 2:1). Sintez qilingan birikmalarning Rf qiymatlari aniqlangan. Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi IQ, ^1H, ^{13}C YaMR spektroskopiya, rentgen tuzilish tahlili (3-rasm) usullari bilan tasdiqlangan.

^1H YMR (600 MHz, $CDCl_3$, δ, m.u., J/Hz): 0.87 (3H, t, J= 6.19, H-11), 1.33 (4H, m, H -9,10), 1.80 (2H, m, H-8), 3.40 (2H, dd, J= 9.63, 2.38, H-7), 3.58 (4H, m, H-2,6), 3.76 (2H, t, J=10.41 H-12), 3.95 (2H, m, H-3), 4.07 (2H, d, J=13.94 H-5), 7.40 (3H, m, H-4',3',5'), 7.58 (2H, d, J=4.95 H-2',6').

^{13}C YMR (150 MHz, $CDCl_3$, ⁄, m.u.): 13.94 (C-11), 21.84 (C-10), 22.31 (C-8), 28.42 (C-9), 56.33 (C-3,5), 56.98 (C-7), 60,62 (C-2,6), 64,85 (C-12), 126.77 (C-1’), 129.42 (C-3',5'), 130.86 (C-4'), 133.40 (C-2',6').



3-rasm. 9-birikmaning kristaldagi tuzilishi.

Sitizin alkaloidini 1,2-dibrometan, 1,3-dibrompropan, 1,4-dibrombutan va 1,5-dibrompentanlar bilan reaksiyalari.

Sitizin – alkaloid bo‘lib, molekulasida ikkilamchi amin (–NH–) guruhi mavjud. Aynan shu azot atomi nukleofil markaz hisoblanadi. Shuning uchun sitizin alkilgalogenidlar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Sitizin digalogenalkanlar bilan reaksiyasi S_N2 mexanizm bo‘yicha boradi. Bir bosqichli nukleofil almashinish, Br^- yaxshi chiqib ketuvchi guruh

hisoblanadi. Avval monoalkillanish, keyin esa sharoitga qarab ichki halqalanish hosil bo‘lishi mumkin. Sitizinning 1,2-dibrometan, 1,3-dibrompropan, 1,4-dibrombutan, 1,5-dibrompentanlar bilan reaksiyalari olib borildi. Ushbu tajribalardan faqat 1,4-dibrombutan bilan olib borilgan tajribada bir bosqichda ichki sikillanish jarayoni yuz berib to‘rtlamchi ammoniy tuzi hosil bo‘ldi.



3-sxema. Sitizinning dibromalkanlar bilan reaksiya tenglamasining umumiy ko‘rinishi.

Bu yerda N-(2-brometil)sitizin (**16**), N-(3-brompropil)sitizin (**17**), N-(4-brombutan)sitizin (**18**), N-(5-brompentil)sitizin (**19**).

Nazariy ma’lumotlarga ko‘ra sitizin alkaloidi bilan reaksiyaga kirishgan to‘rtala dibromalkanlarda xam yuqoridagi reaksiya tenglamasida ko‘rsatilganidek, uchlamchi aminlar hosil bo‘lishi lozim edi. Ammo tajribalar natijasi shuni ko‘rsatdiki, 1,4-dibrombutan bilan olib borilgan tadqiqotda sitizinning to‘rtlamchi ammoniy tuzi yuqori unum bilan hosil bo‘ldi.



4-sxema. Sitizinning 1,4-dibrombutan bilan reaksiya tenglamasi.

